“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohadagi davlat organlarining hamkorligi masalalari: prokuratura organlari misolida

Doston Xonniyozov,
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri
e-mail: doston_xonniyozov@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, mazkur yoʻnalishda hamkorlikni takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari bilan hamkorligi masalalariga doir normativ-huquqiy hujjatlar tahlili haqida soʻz yuritilgan.

Калит сўзлар. korrupsiya, hamkorlik, prokuratura, davlat organlari, prinsiplar, qonuniylik, mexanizmlar

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализировано сотрудничество прокуратуры с другими государственными органами и общественными организациями в борьбе с коррупцией и изложены предложения и рекомендации по совершенствованию сотрудничества в этом направлении. В статье также рассказывается об анализе нормативных правовых актов по вопросам взаимодействия прокуратуры с другими государственными органами в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова. коррупция, сотрудничество, прокуратура, государственные органы, принципы, законность, механизмы

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of cooperation between the prosecutor's Office and other government agencies and public organizations in the fight against corruption and outlines suggestions and recommendations for improving cooperation in this area. The article also describes the analysis of regulatory legal acts on the interaction of the prosecutor's office with other government agencies in the fight against corruption.

Keywords. corruption, cooperation, prosecutor's office, government agencies, principles, legality, mechanisms

Mamlakatimizda bevosita O‘zbekikston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va rag‘barligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. So‘nggi yillarda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi”da yuqoridagi masalalar yuzasidan prokuratura organlariga bir qator vazifalar yuklangan[1]. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun davlat va boshqaruv organlarida ham, xo‘jalik faoliyati sohasida ham ishlab chiqilgan muhim davlat huquqiy institutlaridan biri prokuratura hisoblanadi[2].

Mazkur ustuvor vazifalarning amaliyotdagi natijasini bevosita statistik ma'lumotlar ko‘rsatib turibdi. “So‘nggi yillarda mamlakatimiz “Transparency International” indeksida 42 pog‘onaga ko‘tarildi va bu borada mintaqamizda eng yuqori o‘rinni egallamoqda. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o‘rnimizni yana 50 pog‘onaga yaxshilash maqsadini ko‘zlaganmiz. “Open Data Inventory” reytingida esa joriy yilda 30-o‘ringa ko‘tarildik. Ochiq ma'lumotlar manbalari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 4-o‘rindan joy olgan”[3].

Bugungi kunda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish singari vazifalar yuzasidan prokuratura organlari tomonidan nazorat ostidagi obyektlarda qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish, jamiyatda qonuniylikni yanada mustahkamlash choralari ko‘rilmoqda[4]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi[5].

Bosh qomusimizning mazkur normasiga hamohang tarzda O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalari sifatida qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish faoliyati belgilab qo‘yilgan[6]. Shu o‘rinda prokuratura organlarining nazorati bilan bog‘liq masalalarga alohida to‘xtalish lozim. Tadqiqotchi B. Ismoilov tomonidan o‘z tadqiqot ishida quyidagilarga alohida urg‘u berilgan. Xususan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati institutini mustahkamlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati yo‘nalishlari, nazoratni amalga oshirish

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mexanizmlari, ushbu nazoratni amalga oshirish bo‘yicha prokuror vakolatlarini qonunchilikda belgilash;

- BMT (UN), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD), Jahon banki (WB), Tranparency International (TI) kabi halqaro tashkilotlar tavsiyalaridan kelib chiqib, korrupsiyaga ko‘proq moyil bo‘lgan sohalarni aniqlash, idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini, jumladan, xususiy sektorda korrupsiyaga qarshi komplayens (anti-corruption compliance control), davlat sektorida esa idoraviy halollikni (public integrity system) kuchaytirish, mansabdor shaxslar diskretsiyaviy vakolatlarini (discretionary powers) qisqartirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirishda mazkur nazoratning shakllari, usullari va uslubiyotining o‘rni va rolini belgilash muhimligi asoslantirilib, qonunchilikka “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat” nomli yangi bob kiritish;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirishning huquqiy asoslari sifatida davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulki va manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertiza qilish[7].

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda davlat nazoratining bir necha turlari shakllangan bo‘lib bular ichida prokuror nazorati alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida prokuratura organining vakolatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

- korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

- aholi oʻrtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targʻibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oʻz vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qoʻyilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi[8].

Ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bogʻliq masalalar 2017-yildan buyon mamlakatimiz siyosatining ustuvor masalasi boʻlib qolmoqda. Xususan, buni biz Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 – 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi”ning ustuvor yoʻnalish (*korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish*) va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston – 2030” Strategiyasining 89-maqsadi (*Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish*)da koʻrishimiz mumkin[9], [10].

Shu oʻrinda prokuratura organlarining korrupsiyani oldini olish sohasidagi vazifalari sifatida huquqiy targʻibot ishlarini alohida qayd etishimiz lozim. Xususan, 2021-yilda prokuratura organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha jami 8 394 ta tadbir, shundan 15 ta konferensiya, 154 ta seminar va 2 449 ta davra suhbati oʻtkazilgan, 1 621 marotaba ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, 340 marotaba televideniyeda, 531 marotaba radio, 174 marotaba matbuotda va 576 marotaba internet tarmogʻida chiqishlar qilingan[11].

Fikrimizcha, prokuratura organlari tomonidan aynan huquqiy targʻibot va tashviqot bilan bogʻliq tadbirlarni tashkil etish va uning doirasini kengaytirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat jamiyatni huquqiy ongini oshirish va balki vazirlik va idoralar xodimlarining ham bilim va malakalarini oshirib borish lozim. Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tayyorlangan Oʻzbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi axborot tahliliy ma'lumotda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishga masʻul boʻlgan kadrlarni oʻqitish va malakasini oshirish tizimi joriy etilib, dastlabki bosqichda vazirlik va idoralarning 299 nafar xodimi Bosh prokuratura akademiyasining qisqa muddatli onlayn kursida

oʻqitilishi ta'minlanganligi e'tirof etilgan.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vazifalarini takomillashtirishda huquqiy targʻibot-tashviqot ishlari, jamiyatda huquqiy ongni oshirish va qonunchilik tashabbusi muhim oʻrin tutadi. Fikrimizcha, aynan ushbu yoʻnalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish hamda boshqa davlat organlari oʻzaro hamkorlik qilishlari muhim sanaladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.05.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон Фармони. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.07.2021 й., 06/21/6257/0645-сон. //

2. Калита И.А. Деятельность органов прокуратуры по противодействию коррупции // Автореф. диссер. канд. юрид. наук. - Москва, 2013. Стр.1.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидаги нутқи //https://president.uz/uz/lists/view/6934

4. Ш. Мажидов. “Прокуратура органлари томонидан қонунлар ижроси устидан назоратни амалга оширишда коррупцияга қарши экспертиза: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги магистрлик диссертацияси. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси. Тошкент-2022 й. 40-б.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. https://lex.uz/docs/6445145

6. Ўзбекистон Республикаси —Прокуратура тўғрисидаги Қонуни. 257-II-сон. 29.08.2001. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03/21/257-II/1064-сон.

7. Б. Исмоилов. “Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш” мавзусидаги юрид.фанлари бўйича фалсафа докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. Т. 2023 й. 11-б.

8. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон. //

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.02.2017 йилдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон. .

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ПФ-158-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.03.2025 й., 06/25/56/0274-сон. .

11. Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида миллий маъруза. Ахборот таҳлилий маълумот. Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, 2022. 60-б.